




Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar oyi)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar oyida respublika korxonalarini tomonidan 1137,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 103,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 85,6 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, %

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 3,1 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 34,8 % ga o'sishi xizmat qildi.

Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 50,5 % ga hamda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 15,4 % ga pasayish kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, %

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020-yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6,8 mlrd. soʻmnini yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni tashkil etdi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning shu davriga nisbatan ohak tosh qazib olish – 62,3 % ga tabiiy qum qazib olish – 42,0 % ga chaqiq tosh – 30,7 % ga oshgan bo'lsa, gaz kondensati – 8,2 % ga hamda tabiiy gaz qazib olish – 9,3 % ga pasaygan.



Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar	2020-yil yanvar	Farqi +/-
Ohak tosh , ming t.	16,4	26,7	10,3
Tabiiy qum, ming t.	25,6	36,3	10,7
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	250,7	227,4	-23,3
Gaz kondensati, ming t.	10,3	9,4	-0,9
Chaqiq tosh, ming t.	14,5	19,0	4,5




Ishlab chiqaradigan sanoat

2020-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 973,8 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 85,6 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi boʻyicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %

Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,8 % ni (2019-yil yanvar oyida - 1,4 %), oʼrta-yuqori texnologiyali – 68,5 % (68,7 %), oʼrta-quyi texnologiyali - 4,0% (4,2 %) va quyi texnologiyalisi - 26,7 % (25,7 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 58,1 % (2019-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 102,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 12,4 % (2019-yil

yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 78,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 9,6 % (2019-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 99,1 %) ni, boshqa nometall mineral mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,8 % (2019-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 110,6 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati



Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar	2020-yil yanvar	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	7,2	4,5	-2,7
Aroq, ming litr 100 % li spirit	388,3	300,1	-88,2
Paxtadan yigirilgan ip, t.	-	369,0	369,0
Polietulen, ming t.	30,7	32,3	1,6
Polipropilen, ming t.	8,4	8,9	0,5



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 152,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,4 % ini) tashkil etdi.

2020-yilning yanvar oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 34,8 % ga oshganligi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar	2020-yil yanvar	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln. kVt/s	376,6	354,6	-22,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	6,9	5,7	-1,2
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	16744,5	14164,2	-2580,3



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar	2020-yil yanvar	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	322,8	456,4	133,6
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	415,0	856,6	441,6
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	2109,3	2754,5	645,2

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar – 106,4 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 41,4 % ga hamda suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar – 30,6 % ga oshganligi kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 161,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 5,3 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 14,2 % ni tashkil etdi.



2019-yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020 -yil yanvar oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 59,3 % dan 58,3 % gacha kamayganligi qayd etildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 6,7 % (2019-yil yanvar oyida 8,8 %) ni tashkil etdi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar oyida, %)**

	Mird. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar oyiga nisbatan, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	161,6	100	105,3
Amudaryo	10,2	6,4	106,6
Beruniy	14,0	8,7	101,4
Bo`zatov	0,5	0,3	-
Qonliko'l	1,8	1,1	100,2
Qorao'zak	2,9	1,8	100,3
Kegayli	3,0	1,9	100,3
Qo'ng'irot	9,6	5,9	108,2
Mo'ynoq	1,3	0,8	105,4
Nukus	2,9	1,8	100,0
Taxiatosh	14,6	9,0	114,8
Taxtako'pir	1,5	1,0	100,2
To'rtko'l	15,9	9,8	109,0
Xo'jayli	19,2	11,9	113,5
Chimboy	4,7	2,9	111,0
Shumanay	2,5	1,5	100,9
Ellikqal'a	6,7	4,1	100,1
Nukus sh.	50,3	31,1	100,0

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 31,1 % ni, shuningdek, Xo'jayli tumani 11,9 % ni, To'rtko'l tumani 9,8 % ni, Taxiatosh tumani 9,0 % ni, Beruniy tumani 8,7 % ni va Amudaryo tumani 6,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati respublika o'sish sur'ati (105,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Taxiatosh (114,8 %), Xo'jayli (113,5 %), Chimboy (111,0 %), To'rtko'l (109,0 %), Qo'ng'irot (108,2 %), Amudaryo (106,6 %) hamda Mo'ynoq tumanlarida (105,4 %) qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari
ishlabchiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar oyida, %)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar oyiga nisbatan, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	94,2	100	103,5
Amudaryo	6,3	6,7	106,7
Beruniy	8,0	8,5	102,3
Bo`zatov	0,4	0,4	-
Qonliko'l	1,3	1,4	101,5
Qorao'zak	1,6	1,7	100,2
Kegayli	2,0	2,1	100,4
Qo'ng'irot	6,4	6,8	103,4
Mo'ynoq	0,9	0,9	104,6
Nukus	1,5	1,6	95,5
Taxiatosh	10,1	10,8	161,4
Taxtako'pir	1,0	1,1	98,2
To'rtko'l	10,4	11,0	131,5
Xo'jayli	10,8	11,5	107,5
Chimboy	3,2	3,3	107,4
Shumanay	1,6	1,7	95,5
Ellikqal'a	4,5	4,8	98,9
Nukus sh.	24,2	25,7	82,5

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 25,7 %, shuningdek, Xo'jayli tumani 11,5 % ni, To'rtko'l tumani 11,0 % va Taxiatoш tumani 10,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Taxiatoш (161,4%) va To'rtko'l (131,5 %) tumanlarida qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari
ishlabchiarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2020-yilning yanvar oyida, %)**

	Mird. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2019-yil yanvar oyiga nisbatan, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	67,4	100	107,9
Amudaryo	3,9	5,8	106,4
Beruniy	6,0	8,9	100,3
Bo`zatov	0,1	0,2	-
Qonliko'l	0,5	0,8	97,4
Qorao'zak	1,3	1,9	100,3
Kegayli	1,0	1,6	100,0
Qo'ng'iroт	3,2	4,7	119,4
Mo'ynoq	0,4	0,6	107,1
Nukus	1,4	2,2	105,0
Taxiatoш	4,5	6,6	69,2
Taxtako'pir	0,5	0,7	104,9
To'rtko'l	5,5	8,1	82,3
Xo'jayli	8,4	12,4	122,3
Chimboy	1,5	2,3	119,3
Shumanay	0,9	1,3	112,3
Ellikqal'a	2,2	3,2	102,6
Nukus sh.	26,1	38,7	124,6

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to'g'ri kelib, 38,7 %, shuningdek, Xo'jayli 12,4 % ni, Beruniy tumani 8,9 % ni va To'rtko'l 8,1 % tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida respublika o'sish sur'ati (107,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Nukus shahri (124,6 %), Xo'jayli (122,3 %), Qo'ng'irot (119,4 %), Chimboy (119,3 %) tumanlarida qayd etildi.




Qoraqalpog'iston Respublikasi shahar va tumanlar kesimidasanoat ishlab chiqarish hajmlari

	2020-yil yanvar mldr. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1137,5	103,5
Amudaryo	33,7	101,8
Beruniy	37,7	133,1
Bo`zatov	0,6	625,1
Qonliko'l	4,2	103,4
Qorao'zak	13,3	107,6
Kegayli	23,4	102,2
Qo'ng'irot	19,2	102,4
Mo'ynoq	4,0	105,2
Nukus	21,9	112,6
Taxiatosh	140,5	126,2
Taxtako'pir	1,9	102,8
To'rtko'l	36,2	102,9
Xo'jayli	39,2	101,6
Chimboy	10,8	102,0
Shumanay	4,6	101,0
Ellikqal'a	13,0	104,9
Nukus sh.	733,3	101,4



Qoraqalpo'giston Respublikasi ishlab chiqarish hajmida shahar va tumanlar sanoat mahsulotlarining ulushi, %



Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 64,5 %), Taxiatosh (12,3 %) hamda Xo'jayli (3,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Eng past ko'rsatkich esa Bo'zatov (0,1 %), Taxtako'pir (0,2 %), Mo'ynoq (0,3 %) Qonliko'l hamda Shumanay (0,4 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Shahar va tumanlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi (2019-yil yanvar oyiga nisbatan, %)


Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, Beruniy (2019-yil yanvar oyiga nisbatan 133,1 %), Taxiatosh (126,2 %), Nukus (112,6 %), Qorao'zak (107,6 %) hamda Mo'ynoq (105,2 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi
(2019-yil yanvar oyiga nisbatan, % da)**





Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (2019-yil yanvar oyiga nisbatan, %)



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Taxiatosh (2019-yil yanvarl oyiga nisbatan 114,8 %), Xo'jayli (113,5 %), Chimboy (111,0 %), To'rko'l (109,0), Qo'ng'irot (108,2 %), Amudaryo (106,6 %) hamda Mo'ynoq (105,4 %) tumanlarida sezilarli dara-jada oshdi.



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 668,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 58,8 % ni tashkil etdi.



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (2311,1 ming so'm), Taxiatosh (1916,5 ming so'm) tumanida o'rtacha Qoraqalpog'iston Respublikasi darjasini ko'rsatkichidan (603,7 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 85,8 ming so'm bo'lgani holda Nukus shahrida – 158,5 ming so'mni, Taxiatoш tumanida – 199,1 ming so'mni, Xo'jayli tumanida – 157,3 ming so'mni tashkil etdi.




**2020-yil yanvar oyida aholi jon boshiga
to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol
mahsulotlari ishlab chiqarish, (ming so'm)**

	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol mahsulotlari
Qoraqalpog'iston Respublikasi	603,7	85,8
Amudaryo	171,0	51,8
Beruniy	198,8	73,7
Bo`zatov	26,1	25,0
Qonliko'l	82,3	36,1
Qorao'zak	253,6	56,0
Kegayli	324,9	42,2
Qo'ng'irot	148,6	74,2
Mo'ynoq	126,8	40,8
Nukus	440,1	58,4
Taxiatoш	1916,5	199,1
Taxtako'pir	47,3	37,7
To'rtko'l	170,7	74,8
Xo'jayli	321,2	157,3
Chimboy	97,0	41,8
Shumanay	82,6	44,2
Ellikqal'a	82,6	42,3
Nukus sh.	2311,1	158,5



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2020-yil yanvar oyida, %)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 198,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 17,4 % ni tashkil etdi.




Shahar va tumanlar kesimida kichik biznes-ning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Bo'zatov, Mo'ynoq, Shumanay va Ellikqal'a tumanlarida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Qorao'zak tumanida (99,99 %), Chimboy tumanida (95,8%), Beruniy tumani-da (80,1 %) kuzatildi.

Respublikamiz shahar va tumanlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Nukus shahar (5,8 %), Taxiatosh (7,1 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Respublikada faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini (2020-yil 1-fevral holatiga)

Bugungi kunda respublikada 2351 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1049 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiyligi sonining 44,6 %) Nukus shahriga 553 tasi (23,5 %), To'rtko'l tumaniga 258 tasi (11,0 %), Beruniy tumaniga 238 tasi (10,1 %) to'g'ri kelmoqda.



2020-yil yanvar oyida respublikada 43 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 19 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi 44,2 %) Nukus shahrida 6 tasi (13,95 %), To'rtko'l tumanida 6 tasi (13,95 %) hamda 7 tasi (16,3 %) Ellikqal'a tumanida tashkil etildi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi
statistika boshqarmasi sanoat
statistikasi bo'llimi Tel.: (61) 222-75-87**